

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Shernazarov, X.Jamolova	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari	91
S.Halimov	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi	95
	TILSHUNOSLIK
Z.Akbarova, M.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
G.Davlyatova	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
B.To'rayeva	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari	107
Z.Alimova, S.Gafurova	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida	114
G.Raximova	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar	120
J.Ibragimov	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi	123
N.Xasanboyeva	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari	127
D.Ganiyeva, D.Ismoilova	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari	130
M.Qurbonova	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi	134
L.Masharipova	
Til va madaniyat	139
Sh.Jumaqulova	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi	144
X.Maripova	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari	147
A.Mattiyev	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar	151
A.Yuldashev	
So'z ma'nosi xususida.....	154
D.Gaziyeva	
Funksional va stilistik jihatdan media tili	159
U.Yokubbayeva	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasining semantik takomili	164
N.Umarova, M.Abdulimova	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari	170
	MATEMATIKA
A.Xasanov, I.Jalilov	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi	173
D.Usmonov, A.Urinov	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar	185
	FIZIKA – TEXNIKA
M.Maxmudova, Sh.Shuxratov	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

“SADOI TURKISTON” GAZETASI VA UNDAGI BIR MAQOLA XUSUSIDA

О ГАЗЕТЕ "САДОЙ ТУРКИСТАН" И СТАТЬЕ В НЕЙ

ABOUT THE NEWSPAPER "SADOI TURKISTON" AND THE ARTICLE IN IT

Alimova Zarifa Vahobovna¹, Gafurova Surayyo Ulug'bekovna²¹Alimova Zarifa Vahobovna

– Farg'ona davlat universiteti dosenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

²Gafurova Surayyo Ulug'bekovna

– Farg'ona davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotasiya

Ushbu maqolada o'zbek publisistikasining tamal toshlaridan biri bo'lgan "Sadoi Turkiston" gazetasi haqida fikr yuritiladi. Gazetaning xususiyatlari, tarixi, noshirlik bilan bog'liq masalalar, o'sha davr gazeta nashr etish bilan bog'liq o'ziga xos jihatlar e'tiborga olingan. Shuningdek, maqolada Ashurali Zohiriy ijodiga mansub "Ona tili" deb nomlangan maqolasining asl nusxasi va uning transliteratsiyasi keltirilgan bo'lib, bu filologlar, tarixchilar, publisistlar, manbashunoslar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Transliteratsiya qilingan matnni tadqiq etish orqali o'sha davr o'zbek tili xususiyatlari, matn qurilishi, noshirlik tarixi bilan bog'liq yangi bilimlarni o'zlashtirish mumkin.

Аннотация

В данной статье рассматривается газета «Садои Туркестан», одна из первых газет узбекской журналистики. Учитываются особенности газеты, история, вопросы издательского дела, специфические аспекты газетного дела того времени. Также статья содержит оригинал статьи Ашурали Захири под названием «Она тили» и ее транслитерацию, которая служит ценным ресурсом для филологов, историков, публицистов и источниковедов.

Изучая транслитерированный текст, можно получить новые знания, связанные с особенностями узбекского языка того времени, построением текста, историей издательского дела.

Abstract

This article discusses the newspaper "Sadoi Turkestan", one of the first newspapers of Uzbek journalism. The features of the newspaper, history, issues of publishing, specific aspects of the newspaper business of that time are taken into account. The article also contains the original article by Ashurali Zahiri entitled "Ona tili" and its transliteration, which serves as a valuable resource for philologists, historians, publicists and source scholars.

By studying the transliterated text, you can gain new knowledge related to the peculiarities of the Uzbek language of that time, the construction of the text, and the history of publishing.

Kalit so'zlar: gazeta, maqola, tilarixi, matnshunoslik, manbashunoslik, noshirlik, publisistika, matbuot, jadidlar.

Ключевые слова: газета, статья, история языка, текстология, источниковедение, издательское дело, публицистика, пресса, жадиды.

Key words: newspaper, article, history of language, textual criticism, source studies, publishing, journalism, press, jadids.

KIRISH. O'zbekistonda milliy matbuotning tug'ilish, shakllanish va rivojlanish tarixi yuz yildan ziyodroq vaqtni o'z ichiga oladi. XX asr boshlarida, anikroq aytganda, 1906-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Taraqqiy" milliy o'zbek matbuotining qaldirg'och gazetasi bo'lgan bo'lsa, undan keyin 1917-yilga qadar 10 ta gazeta va jurnal nashr etildi. Afsuski, bu vaqtli nashrlar Podshoh Rossiyasi manfaatlariga xizmat qilmaganligi, aksincha, o'zbek xalqi milliy ongi, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy darajasining oshishi yo'lida faoliyat olib borganligi uchun uzoq vaqt yashamay, aksar hollarda Podshoh Rossiyasi syenzurasining siquvi, ayrim hollarda esa iqtisodiy qiyinchilikka duch kelganligi orqasidan o'z faoliyatini to'xtatgan. Ammo shunga qaramay, bu nashrlarning har biri tarixchilardan maxsus o'rganishni, hatto ularda e'lon qilingan va o'zbek xalqi ijtimoiy ongining oshishiga qaratilgan yoki badiiy qimmatdan xoli bo'lmagan xabar va maqolalar, she'r, ocherk va hikoyalarning o'ziga xos antologiyasini yaratishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1906-1917-yillar oralig'ida nashr qilingan gazeta va jurnallar orasida "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarining anchadan beri nafaqat mutaxassislar, balki o'zbek xalqining XX

TILSHUNOSLIK

asr boshlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan qiziqqan kishilar e'tiborini tortib kelayotgani tasodif emas.

2014-yilda shu ikki gazetaning chiqqa boshlaganiga rosa 100 yil to'ldi. 1906-1917-yillar oralig'ida "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Samarqand" singari gazetalar nashr etilgani va bu gazetalarining maydonga kelishiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy singari allomalar tamal toshini qo'yganlariga qaramay, "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" gazetalarining nashr etilishi Ishoqxon Ibrat, Tavallo singari shoirlarning ilhom bulog'ini to'liqlantirib yuborgan, Toshkentda esa "Sadoi Turkiston" gazetasi xodimlari va muxlislari gazeta chiqqan kunni homiylardan birining bog'ida sayil o'tkazib, bayram sifatida nishonlagan edilar.

Jadid matbuotining yirik nashrlaridan biri 1914-yil 3-aprelidan Qo'qon shahrida nashr etila boshlagan "Sadoi Farg'ona" gazetasidir. Uning egasi va muharriri tog'-kon muhandisi Obidjon Mahmudov (taxallusi Obid Chatoq) bo'lib, gazeta uning xususiy matbaasida bosilgan. Gazeta xalqni jaholatga qarshi kurashga, foydasiz rasm-rusum va bad'atlarni tugatishga, ularga sarflanadigan mablag'larni esa millat bolalarini o'qishi uchun ishlatishga chaqirdi. "Sadoi Farg'ona" ilk sonlaridanoq xalqning sevimli gazetasi va muhokama minbariga aylanib ulgurdi. Gazeta Turkiston jadidlarining afkor ommasi sifatida ta'limni isloh etishni bosh masala sifatida o'z oldiga qo'ydi va "usuli jadida" maktablarini targ'ib etdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gazeta 1914-yilning 17-iyulidan "Ferganskoye exo" nomi bilan haftada 3 marta rus tilida ham chiqqan. Nashr xususiy bosmaxonada 4 sahifada, taxminan 500—600 nusxada chop qilinib, asosan, qo'lda tarqatilgan. Tahririyatning tarkibi 3 kishidan: Obidjon Mahmudov (noshir va muharrir), Ashurali Zohiriy (adabiy xodim, musahhih), Usmon Nuriydan (rus tilidan o'zbekchaga tarjima qilish bilan shug'ullangan) iborat bo'lgan. "Sadoi Farg'ona"da o'sha davr o'zbek adabiyoti va publisistikasining taniqli namoyandalari: Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Sulaymonov (Cho'lpon), To'lagan Xo'jamiyorov (Tavallo), Ibrohim Davron, Saidahmad Vasliy va boshqa ijodkorlar she'r va maqolalari bilan faol hamkorlik qilganlar. "Sadoi Farg'ona"da publisistik va adabiy janrlarda yozilgan asarlardan tashqari, Rossiya firmalari, shuningdek, Qo'qondagi tijoratchilarning mollarini reklama qiluvchi e'lonlar ham bosilgan (3-va 4-sahifalarda). Gazetada madaniy-ma'rifiy mavzu markaziy o'rin tutgan. "Sadoi Farg'ona" yoshlarga dunyoviy bilimlarni o'rgatuvchi zamonaviy (usuli jadid) maktablarni izchil targ'ib qilgan, bu masala yuzasidan munozaralar uyushtirgan, millatning ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiluvchi yangi badiiy adabiyot, matbuot yaratish, xalq ommasiga tushunarli adabiy tilni shakllantirish, yoshlardan bilimdon, ma'naviy barkamol mutaxassislar yetishtirish kabi milliy taraqqiyotga doir dolzarb muammolar haqida bahs yuritgan. Uning jami 122 soni nashrdan chiqib, so'ng to'xtatilgan.

O'zbek tilining arab yozuvida «Sadoi Farg'ona» gazetasi nashrdan chiqqan bo'lsa, uning noshiri va muharriri Obidjon Mahmudov 1913-1914-yillarda o'zining xususiy bosmaxonasini, keyin nashriyotini tashkil qiladi. Ashurali Zohiriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishuv va qadrdonlashuv uning hayotida keskin burilish yasaydi. Doimo o'z xalqining taraqqiyoti haqida mulohaza yurituvchi Obidjon Mahmudov o'zining hayrli ishlariga Farg'ona vodiysining taniqli boy va mutafakkir ziyolilarini jalb etadi. Shu xatti-harakat samarasi o'laroq "Sadoi Farg'ona" gazetasini nashr etish boshlanadi. Gazetaning ilk soniga so'z boshi yozgan Obidjon Mahmudov o'quvchilar ommasiga gazeta sahifalari barcha uchun ochiq ekanligini ma'lum qildi: «Arbobi qalam va ashobi irfon uchun g'azetamizning sutunlari har zamon ochiq bo'lub, maslakimiza muvofiq bo'lg'on har bir maktub darj o'linajakdir», deydi. Sababi ilg'or fikrli zamondoshlarining maqsadi yagona bo'lib, xalqni rivojlangan davlatlar safida ko'rish va yuksak cho'qqiga ko'tarish edi. Shu bois «maslakimiza muvofiq» degan so'zni qo'llaydi. Gazetaning maqsadi haqida shunday deb yozadi: «Gazetani nashr etishdan maqsadimiz tijorat emas, balki xalqimizga qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmoqdir. Xalqimizda matbuot va jaridai milliyaga kundan-kun shavq va rag'bat o'zgardi. Gazeta moddiy jihatdan ta'minlangan».

Quvonarli jihati shundaki, ushbu gazetaning deyarli barcha sonlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining Qo'lyozmalar, nodir va alohida qimmatga ega nashrlar fondida saqlanib kelinmoqda.

XULOSA

XX asr boshlarida vujudga kelgan milliy matbuot vositasida xalq ongiga ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sohalarga oid axborotlar yetkazish orqali millat tafakkurini oʻstirishda, ularni zamon yangiliklaridan boxabar qilishda oʻzining maʼlum hissasini qoʻshishga intildi. Milliy matbuot sahifalarida nafaqat maorif sohasida islohotlar oʻtkazish muammosi, balki iqtisodiy-ijtimoiy muammolar ham koʻtarilib, ularning yechimini koʻrsatishga harakat qilingan. Shubhasiz, milliy gazetalar ichida oʻz oʻrniga ega boʻlgan “Sadoi Fargʻona” gazetasi XX asr boshlaridagi Turkiston tarixini, ijtimoiy qarashlar evolyusiyasini oʻrganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Ushbu maqolamiz so'nggida gazetaning 1914 yil 15 aprel 3-sonida nashr etilgan Ashurali Zohiriy qalamiga mansub maqolaning original ko'rinishini hamda transliterasiyasini keltirmoqdamiz.

[illegible]

۱) مەھسۇلاتى ئالى تەلى مەھسۇلاتى يەنى پەلەن پەلەن
 چەكلىمە بىلەن مەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۋەتەننى مەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۲) ئاتار پەلەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۳) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۴) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۵) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۶) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۷) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۸) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۹) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ
 ۱۰) ۋەتەن ئۆتۈپ، ھەقىقەتەن ئۆتۈپ

عاشورا علی ظاہری

هو بويخشي ليك اتاقلېكده

تېرى و مېنىت اخصاد و حېيات
اقتصادىيە نىڭ اساسى و پېشقادىر كان
جانى مۇلقا قانلىق دور. دىن مېنىزىم
ھەم ۋەت ۋەزىرەزىزە ھەم بىشى مەملىكە
بولماقلىكە و تېرىدىلىق دىڭ تورماق
لىكە ۋەزىرەزىزە بول ھەم كەتە مەم
و ئىكادىرەزىزە ھەم لىكە، مەم ئالەف
بە ۋەت ھەم ۋەت ھەم ھەم ھەم ھەم
بولماقلىكە مەملىكە، مەملىكە بولماق
مەملىكە بولماقلىكە مەملىكە بولماق
ۋە مەملىكە بولماقلىكە مەملىكە بولماق

آلاچوب قرب يورو ايڻي، بولاني
الارڻي توڙا ٿورو ڪان مصلح، قضا غريه
لار بوله، بونڪ نظر ڀيلار ڪرامدي
بلڪه اتقان لورڻيه دشمن ليڪ اورونيني
اڳڪڏيلار، آواده بشن لاري نهايتده
پورارودن ڪڍيدلار و بشني لاري نهايتده
پستدن ڪڍيدلار، بر ملت اسلامي
توري صنف و قبيله لاري اوسيدن

کودیلارلار شایانلار یازدیملار، دینیمیز نینگ
عمادی بولغان مکتب و مدرسه لاریمیز
نینگ معنوی مربی سی یولغان، معلم و
مدرس لاریمیزنی تهنیت و بىضا قىزى
قىلدیلار. طبیعى بو ایشارلار آنلاغه
باتقادی، منه شولغان کىن و ایسکی لار
پىنگى لار، دىگن بىرىنه دشمن ،
ضدایسکی گره میدانه کىلپ چىقتى،
نه بو نىك یرله قالای بویش،
مکتب و مدرسه لاریمیز نىك مادی
و معنوی مربی لاری بولغان یايلایمیز
قه م ییشی تار یر مادی علمی
اخلاقى ایشارلاریمیز نىك هج یرینه آنلار
قوشولمايدىلار و یاردم م یر مایدیلار،
حتى اولزالای نىك تىجاری، اقتصادى
اییلارینه نانچه: شرکت لار، کلباییه
لار، تۆرۆمۆق قىده اول؟ ایکی کىشى یر
بولوب قالده شرىك، نىك یر قىلالای
قالدىلار، بول، هه سی بىز نىك آرامیدزه
اتفاق دىگنل نرسه بولمىکىن آچىق
گۆر ساتىپ تورادور اما یردن باشقه
لار نىك هر یر ایشارلای اتقاقلىق یلان
چوڭدغه چىگاندور.

شهریزاد دوتېه بانگه، خېه قير مار
باردور، شاماً افاقليك شرع پيلان
وجود هه كليب دورو، يونك ارقايد
آلار هر يل اېه ميگ لار شاهه كليب
عر لارني راسده اوتكاز، ماقده دولار
يزلار بوساك كوتني كون سيب يوق
بولوب عر لاريزني ذات و خسارنده
اوتكاز ماقليكه دورو، مين
هه اتفاق پيلان اتقارليك نتيجه سي!
غزته مين نيگ گيلادوركان رومورينه
توتورينه غل، هغه مقاله بارازمين.

اصلاح الاصلاح

۱. نچي نومبر ليک غزيته ده. حرم تليک
شا کر مختاروف مقال سیده، پر آؤ فکر ليک
سوز ظاهر بولکاتيدن، بعضي لارغه اندک
ملال پيدا بولدی، پر لارائي يئشي فکر
غه ناولي ابلاپ نناقض لاری نينک

اصلاحیه اسکانی باریه سى ایلادک
بزرینگ پول قیلانیز تصب دن یا
باشق بر غرض یه ایاس، بلکه قصد
یسز اتفانه تکلیف دور. حریثلیک
اوقوغوی لارینیک عین انصاف یله
نظر قیاداک لرانی امید ایلتیز.

(۱) یزه، نرقی پرور بولسا، دفعه
اول علوم قدیمه نی با تکیه سلب
قیوب عامه نیک طبع لارینه مخالف
سوزلاره، سوزلامالیق کیرک ایدی
خصوصاً صلو و مطهراته دار مسائل
فتیه غه آغز آچماق کیرک ایاس ایدی
بلکه اول مقاله دته غه ترغیب قیلینه
مقبول ایدی، چونکه بز ز هر بسر
یز امور شرعیه غه مکلف میزه و هم
جناب مصطفی متدین لار شایسته سوء
آداب قیلمایمیز یزلارغه لایق ایاس
ایدی، نرقی بونیک یله بولماس، ملت
نی کو تکنیکی فالودر مادیورغان درجه

۴) صوما ملت اسلاميه دن باشه ملت غه قراله لارنيك عادنق تاشقاري قى و تمالي ليكلان ليكلاري عتلا و جهلاغه حيرت بيرادوره لارنيك علوم و معارف لاريندن چيشك ندوره شو نيك بر له بيز كا لوشناش اقوام اسلاميه ني تمام مسخر قيديلان العاصل لارنيك دارالقون و العلم ديدور لار. آري شونداغ! و لكن بر نيك شهر لار يمزده اول درجه ده ابداني، اعصادي و عالي مكيب لارين يوق ابداني مكيب لارين يوق ممل لاري بولسه، هه لاري مقلده دارالعلمين كور. كاللاري يرده يوق، حتى اكثر لاري ايسكي مدرسه ده هم يوقوغا نلاري يوق. بئراين هر ي كفه ني هم تشبها ايتارلا.

طلبه‌لار بيزنيك سوادى چىكاندى
سونكره نيمه قىلماقچە حيراز دورلار،
ناچار بعضى لارى ميزا، بعضى لارى

ایکسی مدرسہ لارڈہ بارور و بعضی
لاری روسچہ و مسلمانہ مکتب
(توزیعیاتی شکل) غہ بارورلار،
کاشکی زلارده هم و روشنی و واعدا دی،
مکتب لار بولہ ایردی،
بی بول اصول قدیہ مدرسه لارنی
بخشی یکی اثر اضافی، بونن یوزار
ینه عروج و صعود قدانی علاجی
پوقدوره
چون کار یر مراد ما خواهد بود
اندیشه جدا کجا خواهد بود
بی تراث مدرسه لارده طرق قدیه
بره طلبه لارده اون، اون بیش، بلکه
یگره، اوتوزلی یورسه لری هم شرت
علومدن اکثر لری نوش ایتماسلار،
یونک عادت الیه فقه مشه لری ایسای،
بلکه باشه کوب علت لار یا دورور، گیم
لار دورور؛

(۱) بائلیکیده بی ییروا لیک

(۲) که یولاندن سورگره قیاس درس
اوتوب یوردنا کیلیشه کیر قییلای،
(۳) زب جامه و ترتیب عامه، یاردی
کیلدی ادکسر چیلیک، دوران فی
الکله، سوانزه پیشی، یزمه کوش
(که گورستانده و شاشالارده) قهقهه
(هر خیل مالایینی لارغه) قرغه، اشو له
و مسرف لیک، (۴) هر کاب و هر
مبحث نیک مقدمه سیده باشقنه فع انتال
ایشاق، (۵) استاد محترم نیک بی
پروایک لاری و هم (شاگردلار درس
وقوماقه کیر کالارایده، مدرس جنابلار
ری نیک) یولارلره کییتوب انتظار
اینگالاری، (۶) طبله له اوج آبی تمصیل
قیلور لور برهفتدن ثورت کور،
ینه بوندن ایسکی کون اتقارلیک،
خانی من حیث الجموع کور کسون
یول ایتولمه، (۷) حیاتیتل

مطلوبه معلّمه مضیقه اوقات، انداغی مئدهه
و یراعنه استهلال و الف لام، سین ستغریق
حمد، مدح نیک تحقّق لری، الرئی
تعبیر قیلناده عبارتّه غه یکان ایرادلر،
النکا جواب، جوابنه جواب، الغیرنه

[*] شاعركى ئالىمى، مەشھۇر، دۆلەت شۈبھىسىدىكى كىتابكار
پادىشاھ، ئەدلىيە، پائالىيەت: «كۆكتۈر تېغىدا بولغاندا»
كىتابخانىغا كىرىشتە، نازارەت قىلىنىۋاتقاندا، يانچى خوتۇن،
ئورمان.

Oshuro Ali Zohiriy

Ona tili

Bir millatning o'z tilidagi kitob, risola, gazeta, jurnal va boshqalarig'a bir so'z bilan adabiyot (literatura) deyilur. Shuning uchun arabcha kitob va risolalarg'a "adabiyot arabiya", "turk adabiyoti", "tatar adabiyoti" deydurlar.

Dunyoda yashab turg'uvchi har bir millatning ilmda, hunarda va boshqa to'g'rilarida qaysi darajada ekanligi, adabiyoti bilan o'lchanilini adabiyoti boy bo'lg'on millatni har vaziyatda oldinda va

yuqorida e'tibor qilinur. Bilaks adabiyoti bo'lmag'on bo'lsa ham borlik, yo'qlik (yog'i sob bo'lg'on chirog'dek; o'chur, o'chmas) bo'lsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va e'tibori bo'lmas va ham har ne hayot ijtimoiya va madaniyadin baxra ololmas.

Bas endi bizda ham ul "adabiyot" degan narsa bormu yo yo'qmu? Yo'q desa, xato bo'lmaydurg'on bir darajada borurg'a: ul misol nima qilishini bilmaydurg'on kishining qo'lig'a tushgan xomtaladek borgan sari oni qorayturilur, chiritilur, oxiri timurg'a yo boshqa narsag'a almashturilur.

Manashul qabildan bizning ham xoh mudarrislarimiz va xoh yosh o'smirlarimiz bo'lsunlar. Bul muqaddas ona tilimizni tirilturmoqlari anda tursun, balki yo'qotmoqlikg'a sabab bo'lurlar. Va ham bo'lib turubdurlar.

Nechukki ulamolarimizdin biri biror yerg'a xato yozsa yoki birovga bergan narsasini xotira daftarig'a yozsa, o'z ona tilini qo'yub, porsiy tilida yozadurlar. Hammasidan ham zararlighi buldurki: yangi dars o'qumoqga boshlag'on o'z ona tilini ham durustlab bilmaydurg'on bir shogirdig'a dars berganlarida porsiycha tarjima bilan o'rgatadurlar (avval turkiy sarf, turkiy naxv o'qutmoqni anda qo'yaylik) xech bo'lmaganda o'shal arabcha sarf, naxvni turkiy tilig'a tatbiq qilib, ya'ni aning keraklik o'rinlarig'a tilidan misollar ko'rsatib, aytib bersalar, arabchag'a ham zehni kirishib, buning barobarida o'z ona tilini ham bir narsag'a yaraydirg'on til ekanligini bilib, ona tilig'a muhabbati bir daraja ortib, tartibga solib borur edi.

Xolan ul qanday?

Yosh o'smirlarimiz o'z yerliklaridan birini ziyofatga chaqurub xat yozsalar ham usmoniycha yoki tatarcha yozadurlar. Boyadki, ona tilig'a muhabbat va islohiy onlardan kutulur erdi.

Bularning sababi ham ravshandur. Ki bir nechalari: o'zlarining eron adabiyoti ta'siri bilan nurlangan bo'lsalar. Ikkinchilari: tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochgandurlar. Shuning uchun har ikki sinf ham o'zlarining "nur" olg'on taraflarig'a qarab, tortadurlarda. O'z ona tillarig'a xaqorat nazari bilan boqib, kundan kun esdan chiqarmaqga boshlaydurlar.

Durust porsiycha, arabcha, o'ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik. Lekin o'z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodaroq bilaylik. Sarf va naxvlari bilan bilaylik. Va ham shundog' bo'lg'onda arabcha, porsiycha va boshqalarig'a tushunurmiz. Qachonki o'z tilimizni yaxshilab bilmadikmi boshqa tilni albatta durust bilmaymiz.

Shuning birla na uni bilurmiz va buni!

Xijriy 900-yilda va bundan ilgariroq ham "Mavloni Lutfiy", "Amir Navoiy"dek zotlar vujudga kelib, qirg'a yaqin asarlari birlan ona tilimizning boshqa tillarga nazoran boyligini, she'rdi berilg'on maziyatini musiqada bo'lg'on latofatini "Mizon ul-avzon" va "Muhokamat ul-lug'atayn"lari bilan bildurg'on erdilar.

Turkiyni durust tutg'on kishi, jug'rofiyani o'qib ko'rib turkiyning shuncha yerlari qo'ldan chiqib ketgonig'a yuragi yonib, joni siqilgonidek ona tilig'a muhabbati bor kishi ham amir Navoiy asarlarini o'qib ko'rganda tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki ul latofat, ul nafosatlarini yo'qotib, kishi tanimaydurg'on bir holga keltirib qo'ydik, deb ohlar tortur.

Nechukki har bir insonning jonidin aziz narsasi din va millatidir. Avval din va millatni muhofazati ham har afrod insong'a vojibdur.

Oni muxofazati ona tili muxofazati bilan bo'lur. Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, ulvaqt dinini va millatini ham yo'qotur.

Tatar qarindoshlarimizni hozirdag'i til va adabiyotlarini, bundan o'n, o'n besh yil ilgari chiqqan adabiyotlarig'a tatbiq qilinsa, qiyos qabul qilmaslik darajada tafovutlar bordur. Kim bul darajada alarning tillarini kengaymog'i milliy va ona tilidag'i g'azetalari bilan bo'ldi, demoq g'azeta va jurnallarning dunyo ahvalidin va boshqa ulug' va ko'zga ko'rinmaydurg'on bir qoidasi bo'lur, ki ul ona tilining kengaymog'i va mukammallashmog'idir.

Buning birlan millat o'zini dunyoda borlig'ini bildurib, ona tilida o'qutmoq va ta'lim bermoq masalalari chiqqanda, o'zig'a ayrum tili borlar qatoridin xisoblanub, tili yo'qlar qatorig'a kirib qolmas.

Turkistonda chiqqan g'azeta va jurnallar, til to'g'risig'a hech bir iltifot qilmadilar va xolan ham e'tibor etmaslar.

Takror aytaman g'azeta ona tilig'a xizmat etsun! Vaqti kelganda millatni tili yo'qlar qatorida qoldurmasun!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy matbuotimizning ikki durdonasi. "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Fargona" gazetalarining o'zbek xalqini erk va hurriyat, milliy birlik va taraqqiyot goyalari ruhida tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2015 yil 27 may (Two masterpieces of our national press. Materials of the republican scientific-practical conference on the topic "The role and importance of the newspapers "Sadoi Turkistan" and "Sadoi Fargona" in educating the Uzbek people in the spirit of freedom and freedom, national unity and development. - T., May 27, 2015).
2. <https://oyina.uz/kiril/article/906>
3. G.Qodirova. «Sadoi farg'ona» gazetasi – o'lka hayotidagi muhim hodisa sifatida. Axborot-kutubxona xabarnomasi. Infolib. Informacionno-bibliotekhnny vestnik. 2019, №3 (G. Kadirova. "Sadoi Fergana" newspaper as an important event in the country's life. Information-library bulletin. Infolib. Information-bibliotekhnny vestnik. 2019, No. 3).
4. Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). – T., 2000 (Abduazizova N.A. History of Turkestan press (1870-1917). - T., 2000).
5. N.Zoitova. "Sadoi Farg'ona" gazetasi. - Axborot-kutubxona xabarnomasi. Infolib. Informacionno-bibliotekhnny vestnik. 2018, №1 (N. Zoitova. "Sadoi Fergana" newspaper. - Information-library bulletin. Infolib. Information-bibliotekhnny vestnik. 2018, No.1).